

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

ODILOVA YOQUTXON ISLOMOVNA

**OTA-ONANING BOLAGA MUNOSABATI - QO‘RQUV
SHAKLLANISHINING OMILI SIFATIDA**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диспертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Psychological Sciences**

Odilova Yoqutxon Islomovna

Ota-onalarning bolaga munosabati - qo'rquv shakllanishining omili sifatida..... 3

Одилова Ёқутхон Исломовна

Отношение родителей к ребенку как фактор формирования страха.....23

Odilova Yoqutxon Islomovna

Parent's attitude towards the child as a factor in the formation of fear.....45

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

ODILOVA YOQUTXON ISLOMOVNA

**OTA-ONANING BOLAGA MUNOSABATI - QO‘RQUV
SHAKLLANISHINING OMILI SIFATIDA**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/P278 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Normurodov G‘ulomiddin Abdimurodovich**
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Umarali Do‘stqobilovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

Ibaydullayeva Umida Rustamovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «_____» _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

F.A. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixol.f.d. (DSc),
professor

N.B. Atabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi
psixol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jamiyat rivojlanishi bilan birga, oilaviy totuvlik va birdamlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarning bolaga munosabati - qo'rquv shakllanishining omili sifatida oilaviy hayotning individuallashuvi tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Inson huquqlari Deklaratsiyasi va Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada bola nafaqat maxsus himoyaga muhtoj ob'yekt sifatida, balki uning huquqlari alohida qayd etilgan¹. Chikago Oila universiteti (Family Institute Chicago) saytida keltirilishicha², dunyo bo'yicha yosh bolalarning aksariyati qo'rquv turlarini boshdan kechiradilar. Jumladan, hayvonlardan qo'rqish - 61%, tibbiy muolaja olishdan qo'rqish - 47%, qorong'ulikdan qo'rqish - 59%, begona kishilardan qo'rqish - 54%, ertak qahramonlaridan qo'rqish - 54%, ota-onalarning munosabatidan qo'rqish - 59%, oilaviy zo'ravonlikdan qo'rqish - 63%, oilaviy nizolardan qo'rqish - 51 % tashkil etgan. Bu borada ota-onalarning munosabati bolaga qurquv shakllanishining omili sifatida dolzarb muammo bo'lib, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmaganligi bois, mazkur mavzuni dolzarbligini yanada orttiradi va alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oily ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida oilaning jamiyatda ijtimoiy institut sifatidagi mavqei, er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini o'rganish, farzand tarbiyasida an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarga rioya qilishiga erishishning yo'llarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ota-onalarning bolaga munosabatida qo'rquv shakllanishining psixologik xususiyatlari, oiladagi nizolarning turlari, zamonaviy oilalardagi ijtimoiy muammolar va ajralishlarning sabablarini aniqlash, ta'sirini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, mazkur muammoni ilmiy-amaliy tadqiq etishni taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini yanada kuchaytirish, tarbiya jarayoniga o'zbek xalqining ma'naviy merosi va unga xos bo'lgan gumanistik missiyani singdirish, oilaviy hayotda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash maqsadini amalga oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun oila muhitini sog'lomlashtirish, oilaviy o'zaro munosabatlar barqarorligini ta'minlash..., ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini yuksaltirish...»³ kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda psixologik asos bo'lib xizmat qiladi va muhim ahamiyat kasb etadi.

¹Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. BMT Bosh assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25-Qarori bilan qabul qilingan.

² <https://www.family-institute.org/>.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PQ-4312-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4327235>.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4602-son «O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani ko‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan D.U.Abdullayeva, H.A.Abdusamatov, O.A.Abdusattorova, F.A.Akramova, M.X.Fayzieva, E.G‘.G‘oziev, U.R.Ibaydullayeva, V.M.Karimova, U.D.Qodirov, D.B.Raxmanova, F.R.Ro‘ziqulov, M.N.Salaeva, N.N.Salaeva, O‘.B.Shamsiev, G‘.B.Shoumarov, B.M.Umarov, E.Sh.Usmanov, M.A.Utepbergenov, G.T.Yadgarova, G.X. Yunusova va boshqalar oila va oilaviy munosabatlar, oilaviy ajrimlar va uning bola shaxsi shakllanishiga ta’siri, oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari, oilaning reproduktiv funksiyalari, ota-ona munosabatlarining bola rivojlanishiga ta’siri kabi masalalarni tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan Y.Y.Aleshina, T.Andreeva, A.I.Antonov, M.Argayl, M.Y.Arutyunyan, V.V.Boyko, V.N.Drujinin, G.G.Filippova, Y.A.Gasparyan, L.Ya.Gozman, O.M.Zdravomislova, I.O.Kon, S.D.Kovalev, V.G.Krisko, A.A.Kronik, M.G.Pankratova, N.L.Pushkareva, L.B.Shneyder, Z.A. Yankova va boshqalar tomonidan ota-ona munosabatlarining bola shaxsi shakllanishiga ta’siri, bolalarda qo‘rquv namoyon bo‘lishi, qo‘rquv va uning oila muhitiga aloqasi, qo‘rquvni bartaraf etishning psixologik yo‘llari kabi muammolar keng o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlar psixolog olimlaridan A.Bandura, M.D.Davn, X. Djems, M.Djeyms, D.I.Feldshteyn, Z.Freyd, G.Gadamer, D.M.Klark, A.Leng, K.Levi-Stross, D.Mak Neyl, J.D.Mark, F.Nisshe, I.Prigojen, R.M.Rapi, M.Shteyn, A.Toynbi, A.Uel, S.Xantington, R.G. Xaymberg va boshqalar bolalarda qo‘rquvga sababchi bo‘luvchi omillar, oilada ota obrazi va uning bola shaxsi shakllanishiga

ta'siri, ota-ona munosabatlaring oilaviy farovonlikka ta'siri, bolalik davrida qo'rquv shakllanishi va uning profilaktikasi kabi masalalarni, o'ziga xos yo'nalishlarda keng tadqiq etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasining «Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari» mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan (2019-2024 y.y).

Tadqiqotning maqsadi ota-onalarning bolaga munosabati orqali qo'rquv shakllanishini aniqlash hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ochib berish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha hamda kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tadqiq etish;

ota-onalarning bolalarga munosabati orqali qo'rquvning minimallasishiga olib keluvchi xususiyatlarni bayon qilish;

ota-onalar bolalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali, ularda qo'rquvni yuzaga keltiruvchi psixologik determinantlarni tahlil qilish;

bolalar ota-onalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishganda, ota-onaga, buvi-buvalarga, aka-uka hamda opa-singillarga va do'sti-dugonasiga bo'lgan munosabatlarni tizimli tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida Navoiy viloyatida istiqomat qiluvchi 55 nafar ota-onalar va ularning 10 yoshgacha 80 nafar bolalari, Buxoro viloyatida istiqomat qiluvchi 69 nafar ota-onalar va ularning 10 yoshgacha 73 nafar bolalari, Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi 50 nafar ota-onalar va ularning 10 yoshgacha 58 nafar bolalaridan iborat - jami 375 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini ota-onalarning bolaga munosabatida qo'rquv namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, O.Sagalakova va D.Truevtsevalarning «Ijtimoiy qo'rquv» so'rovnomasi, M.Leybovichning «Qo'rquv alomatlarini baholash» testi, J.Amirxonning «Koping indikator» metodikasi, T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi (L.Sobchikning modifikatsion varianti), A.Varga va V.Stolinlarningning «Ota-ona munosabatlari» so'rovnomasi, R.Jilening «Oila rasmi» so'rovnomasi metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchliligini tasdiqlashda Styudentning t-mezoni va K.Pirsonning r-korrelyasiya koeffitsientidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha hamda kichik maktab yoshdagi bolalarda qo'rquv shakllanishi natijasida, ota-onalarda farzandlarni rad etish, avtoritar gipersotsializasiya, muvaffaqiyatsizliklarni qabul qilmaslik, ishonchsizlik, intolerantlik va tajovuzkorlik singari ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning yaqqol aks etganligi isbotlangan;

ota-onalarning bolalarga munosabati orqali qo'rquvning minimallasishiga olib keluvchi xususiyatlar aks etib, oilada ota-onaning liderligi, murosaga kelishi,

ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi, muammolarni konstruktiv hal qilishi, mas’uliyatliligi, hissiy empatiya, emotsional intellekt va tangli emotsional vaziyatlarda o‘zini boshqarish kabi omillar yuqorilashgan sari, bolalarda ijtimoiy xavotirli vaziyatlardan samarali chiqib ketishi asoslangan;

kattalar bolalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi natijasida, ularda qo‘rquvni yuzaga keltiruvchi quyidagi: rad etish, hukmronlik, skeptiklik, tortinchoqlik, avtoritar gipersotsializasiya, muvaffaqiyatsizliklarni qabul qilmaslik va tajovuzkorlik singari psixologik determinantlar muhim omillar ekanligi dalillangan;

bolalar kattalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi tufayli, hamkorlik, mas’uliyatlilik, tolerantlik ko‘proq ijobiy korrelyatni, tibbiy, jismoniy, ertak qahramonlaridan, qorong‘ulikdan hamda fazoviy qo‘rquvlar esa salbiy korrelyatni keltirib chiqarganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalarda qo‘rquv shakllanishining asosiy sabablari ota-onalarning bola bilan munosabatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar orqali amaliy jihatdan asoslab berilgan;

ota-onalarning bolaga nisbatan munosabatlari qo‘rquv shakllanishining omili sifatida ko‘rib, bolada emotsional barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini erkin tutishga psixologik tayyorgarligini orttirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, aprobatsiya qilingan;

ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar tufayli kelib chiqadigan qo‘rquvni bartaraf etuvchi psixokorreksion dastur ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda ilmiy jihatdan asoslangan, xalqaro miqyosida sinalgan metodik vositalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo‘llanilgani; tanlab olingan sinaluvchilarning hajmi va ularning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar nazariy jihatdan chuqur o‘rganilgani, bu jarayonda ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy va amaliy xulosalar orqali kelgusida qo‘rquvni baholashning psixologik omillarini o‘rganishda, maktabgacha yoshdagi hamda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yuzaga keladigan qo‘rquvni oldini olishga qaratilgan nazariy hamda amaliy ma’lumotlar bilan boyitilgan bo‘lib, mazkur ma’lumotlar rivojlanish va ta’lim psixologiyasi, «Umumiy psixologiya», «Psixodiagnostika», «Psixokorreksiya», «Psixologik xizmat», «Ijtimoiy psixologiya» kabi sohalarni ma’lum darajada boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchilarda samarali o‘quv faoliyatga tayyorlash amaliyoti hamda o‘quv faoliyati uchun adaptivlik va qo‘rquvning oldini olish jarayonida muhim omil sifatida qo‘llash mumkin. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar, maktabgacha hamda kichik maktab tizimidagi tarbiyachilar, o‘qituvchilar hamda

amaliyotchi psixologlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish ishlarida keng foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ota-onalarning bolaga munosabatida qoʻrquv namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha hamda kichik maktab yoshdagi bolalarda qoʻrquv shakllanishi natijasida, ota-onalarda farzandlarni rad etish, avtoritar gipersotsializasiya, muvaffaqiyatsizliklarni qabul qilmaslik, ishonchsizlik, intolerantlik va tajovuzkorlik singari ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning yaqqol namoyon boʻlishi isbotlanganligiga doir ilmiy natijalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-301-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-301a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda qoʻrquvni oldini olishning psixodiagnostik jihatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

ota-onalarning bolalarga munosabati orqali qoʻrquvning minimallashtirishiga olib keluvchi xususiyatlar aks etib, oilada ota-onaning liderligi, murosaga kelishi, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashi, muammolarni konstruktiv hal qilishi, masʼuliyatliligi, hissiy empatiya, emosional intellekt va tangli emosional vaziyatlarda oʻzini boshqarish kabi omillar yuqorilashgan sari, bolalarda ijtimoiy xavotirli vaziyatlardan samarali chiqib ketishi asoslanganligiga oid natijalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-301-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» va «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-301a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar oʻquv faoliyati adaptasiya jarayonida qoʻrquvga xos xususiyatlar bilan bogʻliq ilmiy-amaliy natijalarni boyitilishiga erishilgan;

kattalar bolalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali, ularda qoʻrquvni yuzaga keltiruvchi: rad etish, hukmronlik, skeptiklik, tortinchoqlik, avtoritar gipersotsializasiya, muvaffaqiyatsizliklarni qabul qilmaslik va tajovuzkorlik singari psixologik determinantlar muhim omillar ekanligi dalillanganligiga doir natijalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-301-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-301a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, qoʻrquv namoyon boʻlishini aniqlashning psixodiagnostik imkoniyatlarini takomillashtirishga erishilgan;

bolalar kattalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishganda, hamkorlik, masʼuliyatlilik, tolerantlik koʻproq ijobiy korrelyatni, tibbiy, jismoniy, ertak qahramonlaridan, qorongʻulikdan hamda fazoviy qoʻrquvlar esa salbiy korrelyatni hosil qilganligi aniqlanganligiga doir natijalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil

7-dekabrda PM-301-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-301a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, umumta’lim maktablarida kasbiy faoliyat yuritadigan mutaxassislar va amaliyotchi psixologlarni psixologik xizmat faoliyatiga doir, malaka va ko‘nikmalarini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning respublikaning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi mufassal bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Qo‘rquv muammosini o‘rganish bo‘yicha ijtimoiy-psixologik ilmiy tadqiqotlar sharhi**» deb nomlangan bo‘lib, unda qo‘rquv tushunchasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida keltirilgan. Jumladan, qo‘rquvni o‘rganishning ijtimoiy-psixologik ilmiy asoslari yoritib berilgan. Nazariy tahlil asosida ota-onalarning bolaga munosabatida qo‘rquv namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari batafsil keltirilgan.

Zamonaviy inson, o‘zining uzoq ajdodlari kabi, ko‘ringan yoki ko‘rinmas chegaralarni qat’iyat bilan chizishda davom etmoqda. Ammo ushbu demarkatsiyani amalga oshirishda inson ba’zan haddan oshirib yuboradi.

Qo‘rquv - bu tabiiy, kuchli va ibtidoiy insoniy tuyg‘u. Psixologik tadqiqotlariga ko‘ra, u universal biokimyoviy javob va yuqori individual hissiy reaksiyani o‘z ichiga oladi. Qo‘rquv bizni xavf mavjudligi haqida ogohlantiradi, bu xavf jismoniy yoki ruhiy bo‘ladimi farqi yo‘q u o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi. Asosan qo‘rquv haqiqiy real bo‘lgan tahdidlardan kelib chiqadi, lekin u xayoliy xavflardan ham kelib chiqishi mumkin. Garchi qo‘rquv ba’zi vaziyatlarga tabiiy javob bo‘lsa-da, u haddan tashqari yoki haqiqiy tahdidga nomutanosib bo‘lishi mumkin bo‘lib, kuchli tashvish va bir qator buzilishlarga olib kelishi mumkin. Qo‘rquv, shuningdek, vahima qilish, qo‘rquvning yuzaga kelishi va boshqa qo‘rquvlar namoyon bo‘lishiga va travmadan keyingi stress holati kabi ba’zi ruhiy kasalliklarning alomatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamonda qo‘rquv muammosi tobora keskinlashib bormoqda - bugungi kunda u aholining deyarli barcha qatlamlariga ta’sir qiladi. Garchi zamonaviy insoniyat qo‘rquvning salbiy oqibatlarini haligacha bartaraf eta olmagan bo‘lsa-da, qo‘rquvlarni yengishdagi katta muvaffaqiyati “barcha insoniyat irqalari, xalqlari, qabilalari, irqlarning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lganligi haqidagi ochiq-oydin, ammo sekin-asta amalga oshirilgan g‘oyaning isbot dalilidir.

Qo‘rquv - bu odamlar bilan muloqot qilish qo‘rquvini o‘z ichiga olgan kasallik yoki patologiya. Bunda muloqot qilish xavfi mavjud bo‘lgan deyarli har qanday harakat tashvishga sabab bo‘lishi mumkin: telefonda gaplashish, ommaviy nutq, imtihon topshirish, do‘konga borish va h.k. Qo‘rquv yoki ijtimoiy tashvish buzilishi, bilvosita Gippokrat tomonidan miloddan avvalgi V asrning boshlarida tasvirlangan. Qadimgi yunon faylasufi birinchi bo‘lib qo‘rquv bilan duch kelgan odamga xos bo‘lgan his-tuyg‘ularni majoziy ma’noda shakllantirgan: ko‘rishdan qo‘rqish, odamlar bilan muloqot qilish, salbiy natijaga olib kelishidan qo‘rqish xususan buning ta’sirlari - masxara, haqorat yoki hatto zo‘ravonlik bilan ifodalanishi mumkin. Gippokrat bunday his-tuyg‘ularni «uyatchanlik» yoki “uyalish” hissi deb atagan. XIX-XX asrlada psixiatriya sohasidagi olingan tadqiqotlar insonlarni qamrab oladigan bunday tuyg‘ular aslida ruhiy kasallikka o‘xshash va ularni ijtimoiy ahamiyati ancha xavfli bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishdi. «Qo‘rquv» va «ijtimoiy nevroz» atamaları birinchi marta XX asr boshlarida mutaxassislar tomonidan tilga olingan - ular “o‘ta uyatchan” odamlarga tegishli deb talqin etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Ota-onalarning bolaga munosabatida qo‘rquv namoyon bo‘lishini tahlil etishning metodologik jihatlari**»ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda ota-onalarning bolaga munosabatida qo‘rquv xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik imkoniyatlari, ota-onalarning bolaga munosabatida qo‘rquvni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va tadqiqotda tanlab olingan metodikalarning psixologik tavsifi tahlil qilingan.

Qo‘rquv - bu ijtimoiy munosabatlardan qo‘rqish va u ilgari taqqoslangan uyatchanlikdan farqli o‘laroq, hayotning ko‘plab sohalariga ta'sir qilish potentsialiga ega bo‘lib, ta’lim va ishda va shaxsiy munosabatlar va kundalik vazifalarda duch kelishi bilan kuzatilishi mumkin. Qo‘rquvlar, qoida tariqasida, nafaqat har qanday muloqotdan oldin, balki uning davomida va hatto undan keyin ham stressni boshdan kechirishi mumkin va bu bunday qo‘rquv rivojlangan uyatchanlik o‘rtasidagi asosiy farqlardan biridir. Tashvish uchun sabab bo‘lishi kimdir bilan muloqot qilish xavfi mavjud bo‘lgan deyarli har qanday faoliyatda bo‘lishi mumkin: telefonda gaplashish, sahnaga yoki sahnada chiqish, imtihon topshirish, do‘konda xaridga chiqish yoki jamoat joyida do‘stlar bilan uchrashish jiddiy stress bo‘ladi.

1-jadvalda M.Leybovichning «Qo‘rquv alomatlarini baholash» testi natijalari keltirilgan,

1-jadval

M.Leybovichning «Qo‘rquv alomatlarini baholash» testi natijalari, (n=164)

Qo‘rquv darajasi	Yosh davriga ko‘ra qo‘rquv namoyon bo‘lishi
------------------	---

	Maktabgacha yoshdagi bolalar, n=75	Boshlang'ich sinf o'quvchilari, n=89
Yuqori darajada	42.0 %	34.0 %
O'rta darajada	30.0 %	40.0 %
Quyi darajada	28.0 %	26.0 %

Olingan natijalardan ko'rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori darajadagi qo'rquv xususiyatlari (42%) boshlang'ich sinf o'quvchilariga (34%) nisbatan sezilarli darajada ko'proq uchraydi. Bu holat bolalarning emotsional rivojlanishida yosh davriga xos bo'lgan noaniqlik va xavfsizlik ehtiyoji kuchliroq ekanligini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitdagi o'zgarishlarga, notanish vaziyatlarga va ijtimoiy bosimlarga nisbatan sezgirlik darajasi yuqori bo'lib, bu qo'rquv ko'rinishlarining kuchayishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari guruhida esa o'rta darajadagi qo'rquv (40%) nisbatan ko'proq kuzatilgani bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muayyan tajribaga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Ularning quyi darajadagi qo'rquv ko'rsatkichlari (26%) maktabgacha yoshdagi bolalarnikiga (28%) nisbatan biroz kamroq bo'lsa-da, bu farq bolalarning rivojlanayotgan ijtimoiy ko'nikmalari va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Ota-onalarning bolaga munosabati qo'rquv shakllanishining omili sifatida o'rganishning amaliy natijalari**» deb nomlangan. Mazkur bobda tadqiqot ishining amaliy natijalari, emotsional soha va qo'rquv xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda qo'rquvni namoyon qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlangan.

2-jadvalda O.A.Sagalakova va D.V.Truevtsevalarning bolalarda «Ijtimoiy qo'rquvni aniqlash» va M.Leybovichning «Qo'rquv alomatlarini baholash» testi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar (K.Pirsonning r-korrelyatsiya statistik mezoni bo'yicha) olingan natijalar keltirilgan.

Natijalardan ko'rinadiki, bolalarda tibbiy qo'rquv va jismoniy zarar yetkazilishi bilan bog'liq qo'rquvlar ijtimoiy xavotir va ijtimoiy munosabatlarda o'zini erkin his qilish ko'rsatkichlari bilan salbiy bog'liqlikda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, tibbiy qo'rquv (-0,437*) va o'zini nazorat qilishda qo'rquv (-0,474*) kabi ko'rsatkichlarning manfiy korrelyatsiyasi bolalarning ijtimoiy vaziyatlarda o'zini ishonchsiz tutishi, o'z his-tuyg'ularini yetarli darajada ifoda eta olmasligi, shuningdek, tashqi sharoitlarga psixologik moslashuv qiyin kechayotganini anglatadi. Shuningdek, tibbiy qo'rquv va umumiy qo'rquv o'rtasidagi kuchli salbiy bog'liqlik (-0,768**) bolalarning xavfsizlik va sog'liq borasidagi noaniqlik hissiyotlaridan kuchli psixologik bosim sezayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

O.A.Sagalakova va D.V.Truevtsevalarning bolalarda «Ijtimoiy qo'rquvni aniqlash» hamda M.Leybovichning «Qo'rquv alomatlarini baholash» testi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar (K.Pirson r-korrelyatsiya mezoni bo'yicha)

Shkalalar	Ijtimoiy xavotir	Qo'rqumlarni yenga olish	Ijtimoiy xavotirlarni bloklash	O'zini nazorat qilishda qo'rquv	Ijtimoiy munosabatlardagi xavotir	Qo'rquv
Tibbiy qo'rquv	-0,437*			-0,474*	-0,768**	
Jismoniy zarar yetkazish bilan bog'liq qo'rquv	-0,483*	0,618**				0,482*
O'limdan qo'rquv	0,412*				0,565**	-0,667**
Hayvonlardan qo'rqish	0,471*			0,753**		0,406*
Ertak qahramonlaridan qo'rqish		0,595**	0,684**	0,778**		
Qorong'ulik va daxshatli tushlardan qo'rqish				0,652**	0,596**	0,579**
Qo'rquv	0,470*		0,473*			0,636**
Fazoviy qo'rquvlar	0,442*			0,584**		

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$

Jismoniy zarar yetkazish bilan bog'liq qo'rquv va ijtimoiy xavotirlarni yenga olish (0,618**) hamda umumiy qo'rquv (0,482*) o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik bolalarning tashqi tahdid va xavf manbalarini o'z tajribalari asosida baholash va unga nisbatan reaksiya bildirish qobiliyatining shakllanayotganini ko'rsatadi. O'limdan qo'rquv ham ijtimoiy xavotir (0,412*) va ijtimoiy munosabatlardagi xavotir (0,565**) ko'rsatkichlari bilan ijobiy bog'liq bo'lib, bu holat bolalarda hayot va o'lim mavzulariga nisbatan noaniq, emotsional yondashuv shakllanganligini, shuningdek, o'z hayotiga yoki atrofdagilar hayotiga xavf deb his qilinadigan ijtimoiy vaziyatlardan qo'rqish holati kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Ertak qahramonlaridan, qorong'ulikdan va hayvonlardan qo'rqish kabi ko'rsatkichlar ijtimoiy xavotirlarni bloklash va o'zini ijtimoiy vaziyatlarda tutishdagi qo'rquv shakllanishi bilan ijobiy bog'liqlikda ekanligi aniqlangan. Ayniqsa, ertak qahramonlaridan qo'rqish va o'zini nazorat qilishdagi qo'rquv (0,778**) o'rtasidagi yuqori bog'liqlik bolalarda tasavvur va real tajriba o'rtasidagi farqlash qobiliyatining hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Umuman olganda, olingan natijalar bolalarda ijtimoiy-psixologik rivojlanish jarayonida qo'rquvning individual shakllari va ularning ijtimoiy moslashuvga ta'siri o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

3-jadvalda T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar» va A.Varga va V.Stolinlarning «Ota-ona munosabatlari» so'rovnomalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar (K.Pirsonning r-korrelyatsiya mezonini bo'yicha) olingan natijalar keltirilgan. 3-jadvaldagi korrelyatsion ma'lumotlarning psixologik tahlili shaxslararo munosabatlar xususiyatlari va ularning ota-ona hamda bolalar bilan bog'liq munosabatlari qanday bog'liq ekanligini tushunishga yordam beradi. Ushbu tahlil psixologiyada individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va xulq-atvorning dinamikalarini tahlil qilish uchun muhimdir.

3-jadval

T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar» va A.Varga va V.Stolinlarning «Ota-ona munosabatlari» so‘rovnomalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar
(K.Pirsonning r-korrelyatsiya mezonini bo‘yicha)

Shkalalar	Qabul qilish-rad etish	Hamkorlik	Simbioz	Avtoritar gipersotsializatsiya	Kichik omadsizlik
Hukmron-liderlik	-0,590**	0,428*	0,517**	-0,463*	0,409*
Mustaqil-ustuvorlik		0,425*			0,543**
To‘g‘ri-tajovuzkor	0,678**		0,580**	0,557**	
Ishonchsizlik-skeptiklik				0,420*	0,413*
Itoatkor-tortinchoqlik	0,418*		0,567**		
Bog‘liqlik-bo‘ysunuvchanlik	0,422*			0,429*	0,569**
Hamkorlik-konvensiallik	-0,443*	0,656**			
Mas‘uliyatli-bag‘rikenglik		0,410*	0,430*		0,695**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Jadvalda har bir shkalaga psixologik nuqtai nazardan umumiy tahlil berin o‘tish o‘rinli sanaladi. Ya’ni hukmron-liderlik: qabul qilish-rad etish (-0.590) salbiy bog‘lanish hukmronlik qiluvchi shaxslar odatda boshqalar fikrini qabul qilishga moyil emasligini ko‘rsatadi. Ular o‘z qarashlarini ustuvor ko‘radi va murosaga kamroq tayyor bo‘lishi mumkin. Hamkorlik (0.428) va simbioz (0.517): Pozitiv bog‘lanish hukmron shaxslar o‘z liderlik pozitsiyasida hamkorlikni qadrlashlari va boshqalar bilan samarali munosabatlar o‘rnatishga intilishlarini ko‘rsatadi.

To‘g‘ri-tajovuzkorlik: Qabul qilish-rad etish (0.678), Simbioz (0.580) va kichik muvaffaqiyatsizliklar (0.557): Kuchli bog‘lanish tajovuzkor shaxslar o‘z hissiyotlarini ochiq ifodalash orqali boshqalar bilan samimiy va yaqin munosabatlarni o‘rnatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular kichik qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarni yengib o‘tishda faol bo‘lishadi. Ishonchsizlik-skeptiklik: Avtoritar gipersotsializatsiya (0.420) va Kichik muvaffaqiyatsizliklar (0.413): Skeptik shaxslar odatda boshqalarga kamroq ishonch bildiradi, bu ularni qoidalarga qattiq rioya qilishga va kichik muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishga undaydi. Bog‘liqlik-bo‘ysunuvchanlik: Ushbu xususiyat barcha shkalalar bilan ijobiy bog‘lanishga ega bo‘lib, bu bo‘ysunuvchan shaxslarning ko‘pincha boshqalarga qaram ekanligini ko‘rsatadi. Ular boshqalar bilan ishlashda samimiy va moslashuvchan bo‘lishga moyil. Hamkorlik-konvensiallik: Hukmronlik (-0.443): Salbiy bog‘lanish hukmron shaxslar ko‘pincha individualistik ekanligini, konvensiallikka (umumiy qoidalarga moslashuv) esa kam moyilligini bildiradi. Hamkorlik (0.656) va Simbioz (0.488): Bu shaxslar boshqalar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni qadrlashadi.

Ushbu natijalarga ko‘ra quyidagi umumiy aniq psixologik tahlillarni keltirib o‘tish o‘rinli sanaladi: Qabul qilmaslik (rad etish) yuqori bo‘lganda, shaxsda

tajovuzkorlik va boshqalarga bog'liq bo'lish holati ortadi; hamkorlik qilish va konvensiiallik kamayadi. Hamkorlik darajasi yuqori bo'lganlar bag'rikeng, mas'uliyatli, mustaqil va hamkorlikka moyil bo'ladi. Bunday odamlarning agressivligi kam bo'lib, ular ustuvorlik va mas'uliyatlilik xususiyatlarini namoyon qiladi. Konvensiiallik (ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish) yuqori bo'lgan insonlarda hamkorlik qilish ko'nikmalari ortadi va ular boshqalarni qabul qilishga moyildirlar. Mustaqillik va ustuvorlik yuqori bo'lsa, insonda mas'uliyatlilik va o'z qarorlarini mustaqil qabul qilish qobiliyati kuchayadi.

Tajovuzkorlik darajasi yuqori bo'lsa, insonlarda boshqalarni rad etish moyilligi kuchayadi, hamda boshqa shaxslar bilan munosabatlarida agressiv yondashuv shakllanadi. Bog'liqlik va bo'ysunuvchanlik yuqori bo'lgan shaxslar boshqalarga qaramlikka moyil bo'lishadi, mas'uliyatni o'zlariga olishdan qochadilar va tashqi nazoratga muhtoj bo'lishadi. Mas'uliyat va bag'rikenglik yuqori bo'lgan shaxslar ko'proq mustaqil va boshqalar bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishga moyildirlar.

Natijalar bolalardagi qo'rquv shakllari turli ko'rinishlarda namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Jumladan, tibbiy qo'rquv, jismoniy zarar yetkazishdan qo'rquv, o'limdan qo'rquv, hayvonlardan qo'rqish, ertak qahramonlaridan qo'rqish va qorong'ulikdan qo'rqish kabi shkalalarda bolalar turli emotsional reaksiyalarni ifoda etgan. Ayniqsa, ertak qahramonlari va qorong'ulik bilan bog'liq qo'rquv turlari bolalarning tasavvur olamidagi xavfsizlik ehtiyojining muhim ekanini ko'rsatadi. Tahlil qilingan natijalar $p \leq 0,05$ va $p \leq 0,01$ darajalarida ishonchli farqlanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, bu esa bolalar emotsional rivojlanishida qo'rquv manbalarining o'ziga xos o'rni borligini tasdiqlaydi.

4-jadvalda O.Sagalakova va D.Truevtsevalarning bolalarda «Ijtimoiy qo'rquv»ni aniqlash metodikasi natijalarining ko'rsatkichlari (Jonkirning S-mezoniga ko'ra) olingan natijalar keltirilgan.

Ba'zi ko'rsatkichlarda, masalan, jismoniy zarar yetkazish bilan bog'liq qo'rquv va o'limdan qo'rquvda bolalarning emotsional barqarorlik darajasi va xavfsizlik hissi o'rtasida psixologik bog'liqlik seziladi. Hayvonlardan qo'rqish va fazoviy qo'rquv shakllarining namoyon bo'lishi esa bolalarning tashqi muhitni qabul qilishdagi emotsional va kognitiv reaksiyalarini aks ettiradi. Bu holat bolalarning atrofda noaniqliklar va ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasi bilan bevosita bog'liq ekani ehtimolini ko'rsatadi. Shuningdek, ertak qahramonlariga va fantastik obyektlarga nisbatan qo'rquv bolalarning real va xayoliy tahdidlarni farqlashdagi qiyinchiliklarini ifoda etadi.

Natijalar bolalarning emotsional rivojlanish bosqichida qo'rquv shakllarining turlicha ifodalanishini, shuningdek, qo'rquv va xavotirni boshqarish ko'nikmalarining har xil shakllanganligini ko'rsatadi.

4-jadval

O.Sagalakova va D.Truevtsevalarning bolalarda «Ijtimoiy qo'rquv»ni aniqlash metodikasi natijalarining ko'rsatkichlari (Jonkirning S-mezoniga ko'ra)

Shkalalar	Respondentlar	M	S	p
Tibbiy qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	11	1,41	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	8		
	Buxoro viloyati bolalari	12		
Jismoniy zarar yetkazish bilan bog‘liq qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	14	2,72*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	10		
	Buxoro viloyati bolalari	14		
O‘limdan qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	7	2,34*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	6		
	Buxoro viloyati bolalari	4		
Hayvonlardan qo‘rqish	Navoiy viloyati bolalari	5	2,54*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	9		
	Buxoro viloyati bolalari	7		
Ertak qahramonlaridan qo‘rqish	Navoiy viloyati bolalari	13	3,11**	$p \leq 0,01$
	Toshkent shahri bolalari	10		
	Buxoro viloyati bolalari	14		
Qorong‘ulik va daxshatli tushlardan qo‘rqish	Navoiy viloyati bolalari	8	2,20*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	10		
	Buxoro viloyati bolalari	12		
Qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	8	3,28**	$p \leq 0,01$
	Toshkent shahri bolalari	6		
	Buxoro viloyati bolalari	12		
Fazoviy qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	10	1,65	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	10		
	Buxoro viloyati bolalari	12		

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Bu borada psixologik yordam choralari bolalarning emotsional ehtiyojlarini hisobga olgan holda, xavfsizlik hissini kuchaytirish, moslashuvchanlikni rivojlantirish va ijobiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Bu yondashuv bolalarning umumiy emotsional farovonligini oshirish va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

5-jadvalda M.Leybovichning «Qo‘rquv alomatlarini baholash» testi natijalarining ko‘rsatkichlari (Jonkirning S-mezoniga ko‘ra) olingan natijalar keltirilgan.

Natijalar bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida xavotir va qo‘rquv bilan bog‘liq holatlar turlicha darajada ifodalanayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy xavotir, qo‘rquvlarni yenga olish, ijtimoiy xavotirlarni bloklash, o‘zini nazorat qilishda qo‘rquv va ijtimoiy munosabatlardagi qo‘rquv kabi ko‘rsatkichlar orqali bolalarning emotsional boshqaruvi va ijtimoiy moslashuv xususiyatlari o‘rganilgan. Ayniqsa, qo‘rquvlarni yenga olish ($p \leq 0,05$) va ijtimoiy munosabatlardagi qo‘rquv ($p \leq 0,05$) ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ishonchli farqlarni ko‘rsatgani bolalarning ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan sezgirligi va emotsional bardoshlilik darajasini tahlil qilish imkonini beradi.

5-jadval

M.Leybovichning «Qo‘rquv alomatlarini baholash» testi natijalarining ko‘rsatkichlari (Jonkirning S-mezoniga ko‘ra)

Shkalalar	Respondentlar	M	S	p
Ijtimoiy xavotir	Navoiy viloyati bolalari	4	1,84	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	6		
	Buxoro viloyati bolalari	5		
Qo‘rquvlarni yenga olish	Navoiy viloyati bolalari	8	2,54*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	5		
	Buxoro viloyati bolalari	10		
Ijtimoiy xavotirlarni bloklash	Navoiy viloyati bolalari	6	1,64	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	5		
	Buxoro viloyati bolalari	4		
O‘zini nazorat qilishda qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	4	1,49	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	6		
	Buxoro viloyati bolalari	4		
Ijtimoiy munosabatlardagi qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	4	2,76*	$p \leq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	7		
	Buxoro viloyati bolalari	8		
Qo‘rquv	Navoiy viloyati bolalari	4	1,42	$p \geq 0,05$
	Toshkent shahri bolalari	6		
	Buxoro viloyati bolalari	8		
	Buxoro viloyati bolalari	8		

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

